

**SAMARQAND VILOYATIDA YURAK TUG'MA NUQSONLARNI
TURLI SHAKLI BILAN TUG'ILIB MA'LUM VAQT DAVOMIDA YASHAB
VAFOT ETGAN CHAQALOQLARDA HOMILA ICHI INFEKSIYASINI
USHBU PATOLOGIYALARNI KELIB CHIQISHINI O'RGANISH.**

Ismoilov Jasur Mardonovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti "Patalogik
anatomya va seksion bipsiya" kafedrasida dotsenti

Musurmonova Muxlisa Sanjar qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti "Patalogik
anatomya va seksion bipsiya" kafedrasida magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada Samarqand viloyatidagi yurak tug'ma nuqsonlarni turli shakli bilan tug'ilib ma'lum vaqt davomida yashab vafot etgan chaqaloqlarda homila ichi infeksiyasini ushbu patologiyalarni kelib chiqishida o'rni va miokard qavatining tuzilishini morfologik va morfometrik o'zgarishlarini o'rganishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: Homila ichi infeksiyalari, yurak tug'ma nuqsonlari, miokard qavatidagi patomorfologik o'zgarishlar.

**ИЗУЧЕНИЕ ПРОИСХОЖДЕНИЯ ВНУТРИУТРОБНЫХ ИНФЕКЦИЙ
У НОВОРОЖДЕННЫХ, РОДИВШИХСЯ С РАЗЛИЧНЫМИ
ФОРМАМИ ВРОЖДЕННЫХ ПОРОКОВ СЕРДЦА И УМЕРШИХ В
ТЕЧЕНИЕ ОПРЕДЕЛЕННОГО ПЕРИОДА В САМАРКАНДСКОЙ
ОБЛАСТИ.**

Исмаилова Жасура Мардоновича

Самаркандский государственный медицинский университет

"Патологический

доцента кафедры "анатомия и секционная биопсия"
Мусурмонову Мухлису Санжар кизи
Самаркандский государственный медицинский университет
"Патологический
магистр кафедры анатомии и секционной биопсии

Аннотация: Данная статья посвящена изучению роли внутриутробной инфекции у новорожденных, родившихся с различными врожденными пороками сердца в Самаркандской области и умерших в течение определенного периода, в возникновении этих патологий, а также морфологических и морфометрических изменений в структуре миокарда.

Ключевые слова: Внутриутробные инфекции, врожденные пороки сердца, патоморфологические изменения в миокарде.

**STUDY OF THE ORIGIN OF INTRAUTERINE INFECTIONS IN
NEWBORNS BORN WITH VARIOUS FORMS OF CONGENITAL HEART
DEFECTS AND WHO DIED AFTER LIVING FOR A CERTAIN PERIOD
OF TIME IN THE SAMARKAND REGION**

Ismailov Jasur Mardonovich
Samarkand State Medical University "Pathological
Associate Professor of the Department of "Anatomy and Sectional biopsy"
Musurmonova Mukhlisa Sanjar kizi
Samarkand State Medical University "Pathological
master of the department of anatomy and sectional biopsy

Abstract: This article examines the role of intrauterine infection in the development of congenital heart defects and morphological and morphometric changes in the structure of the myocardial layer in newborns born with various

forms of congenital heart defects and who died after living for a certain period in the Samarkand region.

Keywords: Intrauterine infections, congenital heart defects, pathomorphological changes in the myocardial layer.

Tug'ma yurak nuqsonlari - neonatal va bolalik davrida uchraydigan eng ko'p tarqalgan tug'ma anomaliyalardan bo'lib, ularning asosiy sabablari qatorida homila ichi infeksiyalari alohida o'rin tutadi. Xususan, TORCH infeksiyalari homila ichi infeksiyalaridan homilaga ta'siri bo'yicha alohida o'rinda turadi. TORCH-kompleks infeksiyalari (Toxoplasma gondii, Rubella virus, Cytomegalovirus, Herpes simplex virus). -infeksiyalar embrional davrda yurak bo'linmalari, klapanlari va qon tomir devorlarida morfologik va funksional nuqsonlarni chaqiradi. Shu sababli bu infeksiyalarni erta aniqlash, homiladorlikni rejalashtirishda skrining tekshiruvlarini o'tkazish va profilaktik choralar ko'rish dolzarb masala hisoblanadi va mazkur mavzuning o'rganilishi homila rivojlanishidagi infeksiyon omillarning patogenetik ahamiyatini chuqur tushunishga, tug'ma yurak nuqsonlarining oldini olish choralarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tug'ma yurak nuqsonlari muammosining dolzarbligi uning keng tarqalganligi, tashxis qo'yish qiyinligi va bolalarda nogironlikning yuqori xavfi bilan belgilanadi. Ayniqsa intrauterine infeksiyalar alohida o'rinda turadi. Xususan, Herpes, Rubella va Sitomegalovirus infeksiyalari yurak qon tomir tizimining nuqsonlarining rivojlanishi va chastotasiga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Sitomegalovirus ko'pincha markaziy nerv tizimi va eshitish tizimiga ta'sir etadi, ammo bir qancha ishlar fetal yoki perinatal sitomegalovirus infektsiyasining miyokard patologiyasiga (intrauterin myocarditis), yurak yetishmovchiligi va struktural shikastlanishlarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Klinik holatlar va hujayra tadqiqot natijalari sitomegalovirusdan kelib chiqadigan miokarditis va keyinchalik fibrozning mumkinligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari Rubella virusi

yurak tug'ma nuqsonlarining rivojlanishiga sabab bo'luvchi eng yaxshi o'ganilgan viruslardan biridir. Agar birinchi trimesrtda qona organizmida rubella infeksiyasi kechgan hollarda homilada ochiq arterial yo'l(ductus arteriosus), arterial yoki ventrikulyar septal nuqsonlar hamda pulmonar stenoz kuzatiladi. Bu viruslar endoteliy va miokard hujayralarini zararlab yallig'lanish va fibroz jarayonlarini keltirib chiqaradi. Sitomegalovirus esa asosan miokarditlarni keltirib chiqaradi. Bu infeksiyalar homila rivojlanishiga erta va kechg'i bosqichlarda turli xil o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Xususan, erta bosqichlarda zararlanish strukturaliy tug'ma nuqsonlarga, kech bosqichda esa funksional va morfometrik o'zgarishlarga sabab bo'ladi

Samarqand viloyatida kompleks tarzda yurak tug'ma nuqsonlari bilan tug'ilgan homilalarda uchraydigan homila ichi infeksiyalarning etiopatogenetik roli patomorfologik, gistologik hamda gistokimyoviy usullar yordamida o'rganiladi. Tadqiqot davomida yurak to'qimalarida, tomir tizimida va boshqa sohalarida infeksiya ta'sirida kechadigan struktural va distrofik o'zgarishlarning o'ziga xos morfologik belgilar tizimlashtiriladi. Homila ichi infeksiyalari bilan bog'liq tug'ma yurak nuqsonlari uchun diagnostik ahamiyatga ega bo'lgan yangi morfologik mezonlar aniqlanib, ular infeksiyon omillarning yurakning embrional rivojlanishiga ta'siri bilan bog'lanadi. Shu natijalar asosida homila ichi infeksiyalarining yurakning normal morfogenez jarayonini buzishdagi o'rni va mexanizmlari haqida yangi ilmiy ma'lumotlar ishlab chiqiladi.

Olingan natijalar patomorfologiya, pediatriya, neontologiya, kardiologiya sohalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi hamda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. De Melo LC, et al. Congenital Rubella Syndrome in the Post-Elimination Era. *J Clin Med*. 2025.
2. Overall JC Jr. Intrauterine virus infections and congenital heart disease. (review). 2004 / earlier classic references.
3. Su H., et al. First trimester maternal infections and offspring congenital heart disease — systematic review. *Eur Heart J*. 2025.
4. Magno Palmeira M., et al. Heart failure due to cytomegalovirus myocarditis in... *BMC Res Notes*. 2016 (case and review).
5. Giorgione V., et al. Myocardial Function in Fetuses with Congenital ... (Speckle-tracking fetal echo study). 2023.
6. Sharma V., et al. Coxsackievirus B3 infection early in pregnancy induces congenital heart defects (preclinical). *bioRxiv / JAHA-related experimental reports*. 2020–2021.
7. Driscoll SG., et al. Histopathology of Gestational Rubella. *JAMA Pediatr*. 1969 (classic pathology description).
8. Al Beloushi M., et al. Congenital and Perinatal Viral Infections: Consequences. *MDPI Viruses*. 2024 (overview on congenital viral effects).